

## TARJIMA TURLARI VA TAVSIFLANISHI

Xudoyberganova Durdoni Ismail qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarjima turlari hamda ko'plab olimlarning mazkur mavzu doirasidagi qarashlarga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada keltirilgan ko'plab olimlarning turlicha bir- birini takrorlamas fikrlari ushbu mavzuni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Quyida keltirilgan tarjima turlari tarjima jarayonida yaxshigina ko'makchi vazifasini o'taganligi sababli ham bu mavzuni muhim ahamiyat kasb etishini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** tarjimon, tarjima, tur, ijodiy tarjima, erkin tarjima, so'zma so'z tarjima, matn, xususiyat.

### Kirish

Tarjimaning turlarga bo'linish me'zonlari. Tarjimashunoslikda asl nusxa tili va tarjima tilidagi materialning qay shaklda amalga oshirilishiga qarab tarjimaning turli turlarini ajratish mumkin. Bu birinchi tasniflashtirishga asos bo'luvchi omildir. Tarjimashunoslikda tarjimaning turlarini ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ajratish ham amalga oshirib kelinmoqda, unda tarjimaga aloqador har ikkala tildagi matnlarning shakli emas, balki ularning mazmuni yoki mohiyatiga tayanib tasniflashtiriladi. Ayrim olimlar tarjimani shakliga qarab ajratishsa ayrimlari ma'lumotni bayon etish usuliga ko'ra ajratishdi.

### Asosiy qism.

Tarjimani har bir davrda olimlar turlicha tavsiflashgan . Misol uchun **L. S. Barhudarov** asl nusxa tili va tarjima tili matnining qanday shaklda berilishiga ko'ra tarjimaning to'rt asosiy turini ajratadi: 1) og'zaki-og'zaki; 2) yozma-yozma; 3) og'zaki-yozma; 4) yozma-og'zaki. Bu tarjima turlari ichida og'zaki-og'zaki tarjima 2 turga bo'linadi: 1) og'zaki izchil tarjima; 2) og'zaki sinxron tarjima. **V. N. Komissarovning** tarjima tasnifi quyidagicha: 1) badiiy tarjima; 2) informativ tarjima. **G'. M. Xoshimov tasnifi:** 1) badiiy tarjima; 2) nobadiiy tarjima. **R. K. Min'yar-Beloruhev** tasnifiga ko'ra quyidagi tarjima turlari mavjud: 1) yozma tarjima; 2) sinxron tarjima – og'zaki; 3) izchil tarjima; 4) varaqdan tarjima. U yana nima tarjima qilayotganligiga qarab tarjimaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1) badiiy tarjima; 2) ijtimoiy-siyosiy tarjima; 3) ilmiy-tarjimaviy tarjima.



Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi.

Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin turi bo'lib, undan tarjimon gapiruvchi notiqdan bir so'z yoki jumlagi orqada qolib tarjima qiladi, unga tarjima uchun vaqt berilmaydi. Tarjimon bunday paytda ham eshitadi, ham tushunadi, ham tarjima qiladi, ham gapiradi.

Mana shu operatsiyalarning barchasini sinxron tarjimon bir vaqtda bajaradi. Bu esa undan chuqur bilim saviyasidan tashqari, tez mulohaza qilish, tez tushunish, tezda to'g'ri va to'laqonli tarjima qilishni talab etadi. Bu tarjima ingliz tilida **“simultaneous/synchronous translation”** deb yuritiladi. Yozma tarjima va og'zaki tarjima Og'zaki izchil tarjima sinxron tarjimadan oraliqdagi tarjima uchun berilgan vaqtlar bilan, qayta tarjima qilish imkoniyati borligi bilan ajralib turadi. Bunday tarjimada tarjimon avvalo notiqni tinglaydi, keyin uni mulohaza qilib, tarjima qiladi. Bu ingliz tilida **“consequent translation”** deb ataladi.

Yozma-yozma tarjima uzoq tarixga ega. U eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turlaridan bo'lib, minglab baidiy asarlar, millionlab hujjatlar va undan ham ko'proq ilmiy texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi hisoblanadi. Bu tarjimani amalga oshirish unchalik murakkab extralingvistik shart-sharoitlarni talab qilmaydi, chunki tarjimonga to'laqonli tarjima berish uchun barcha imkoniyatlar berilgan, yetarli vaqt, istalgan sharoit, qayta-qayta tarjima qilish, kim bilandir kengashish, maslahatlashish kabi katta imkoniyatlar berilgan.

Yozma-og'zaki tarjima yozma matnning og'zaki tarjimasi demakdir. Bunday tarjima hayotda ko'p uchraydi. Bunga telegrammalar, yo'l-yo'riqlar, xatlar, hujjatlar va hokazolarning tarjimalari misol bo'lishi mumkin.

Og'zaki-yozma tarjima ham tez-tez qo'llanib turadi, masalan, qandaydir og'zaki nutqning yozma tarjimasi, og'zaki suhbatning (muloqotning) yozma tarjimasi misol bo'la oladi. Har bir tarjima turi o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va so'ng tinglash chog'ida yozib olingan eslatmalar (note-taking) yordamida nutqni tarjima qiladi.

Tarjimon shu tariqa asosiy so'zlovchi nomidan ketma- ketlikda so'zlaydi. Ba'zi so'zlovchilar bir nechta gap so'zlab, so'ng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Tarjimon qisqacha yozib olmasdan ham ishlashi mumkin va u o'z xotirasida aytilgan gaplarni saqlaydi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima so'zlovchining nutqini tinglangandan so'ng bajariladi. Bunday vaziyatda



axborotning barcha mazmunini yodda saqlab qolish zarur. Ketma-ket tarjima muzokaralar, konferensiyalar davlat arboblari va siyosiy shaxslarning uchrashuvlarida va delegatsiyani kuzatib yurish chog'ida qo'llaniladi. Ketma-ket tarjima muammosi ilmiy adabiyotlarda ham yetarlicha muhokama qilinmagan. Ketma-ket tarjima qilish vaqtiga ko'ra 2 bosqichga ajratiladi.

Birinchi bosqich, so'zlovchining nutqini o'z ichiga oladi va bu bosqichda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Bundan tashqari tarjimaning ijodiy, so'zma so'z, erkin, obrazlashtirilgan, moslama, mualliflashtirilgan, akademik, va vositachi kabi turlari ma'lum. Ushbu tarjima turlariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'sam;

**Ijodiy tarjima.** Bu tarjima turida aslyat lisoniy matniy manolari va uslubiy vazifalari umumxalq tili grammatik qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratiladi.

**So'zma-so'z tarjima.** Muallif uning mazmunini hijjalab o'girish orqali uning mazmuniy-vazifaviyligini soxtalashtiradigan, hiissiy-ta'sirchanlik, badiy-obrazli asosini hiralashtiriladigan, tarjima tili meyor va madaniyatini barbod etadigan, binobarin, aslyatning tugal-adekvat tarjimasi sifatida qabul qilib bo'lmaydigan ikkilamchi matnga aytiladi.

**Erkin tarjima.** Ushbu tarjima turida hech qanday qoida va to'siqlar bo'lmaganligi sababli tarjimon matni o'zi istaganidek tarjima qilish imkoniyatiga ega. Bu jarayon hech qanday muammo va xatoliklarga sabab bo'lmaydi.

**Moslama tarjima.** Bu tarjima turida aslyatga erkin munosabatda bo'linadi. Ko'proq komediya janriga mansub sahna asarlari hamda she'riyat namunalari tarjimasida mavzu, xarakterlar tarkibi, mazmuniy xususiyiyat muhim saqlansa-da, aslyatda mujassamlashgan milliy o'ziga xoslik, urf-odatlar, ruhiy holatlar tarjima tili sohiblariga xos bo'lgan jihatlar bilan ajralib turadi.

**Mualliflashtirilgan tarjima.** Bunday tarjima muallif roziligi bilan amalga oshiriladi. O'z asarining yuqori badiy-estetik qimmatga ega emasligini his etgan, binobarin, uning o'ziga til kitobxon beradigan yuqori baholanishiga ko'zi yetmagan iyamoni sust, shuhratparast muallif asari o'ziga nisbatan talantliroq bo'lgan adib - tarjimon qo'lga topshiradi.

**Akademik Tarjima.** Aslyatni ilmiy tadqiq qilish maqsadida amalga oshirilgan tarjima akademik tarjima deyiladi. Bunda aslyatning mazmuni saqlangani holda, shakli e'tibordan chetda qoladi. She'riy asarga xos qofiya, turoq kabi hodisa alohida etibor bilan tiklanmaydi. Va bu tarjima ilmiy yo'nalishga mansub sanaladi.



**Voshitachi tildan tarjima.** Keng kitobxon ommasini turli xalqlarning nodir asarlari bilan tanishtirish, ularning insoniyat zakovati maxsuli bo'lmish yuksak darazadali purmantiq fikrlar dunyosidan bahramand qilish mas'uliyati respublikalardan badiiy tarjima ishiga katta e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Ushbu tarjima turida, bir asar avval bir tilga tarjima qilinib, keyin asosiy tilga tarjima qilinadi va birinchi tarjima qilingan til vositachi til sanaldi.

### **Xulosa va takliflar**

Anglash prinsipida so'zlar emas, fikrlar tarjima qilinishi kerak. Agar tarjimon so'zlovchining nutqidagi biron bir so'zning tarjimasini bilmasa, u bu so'zning ma'nosini kontekstdan anglab yetishi zarur. So'zlovchining nutqini e'tibor bilan tinglash juda muhimdir. Ma'noni eslab qolish uchun asosiy fikrlarni va ular orasidagi bog'lanishlarni bilish muhimdir.

Har qanday nutqda 2 ta asosiy lahza majud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon aynan shularga o'z e'tiborini qaratishi lozim. Agar u aniq bo'lmasa va o'tkazib yuborgan bo'linsa, so'zlovchiga fikringizni oydinlashtira olasizmi? deb savol berish zarur. Tarjimon so'zlovchining fikrini o'zining so'zlari orqali ko'proq ifoda etsa, tarjimaning sifati yaxshiroq bo'ladi. Tarjimon ko'proq ijodiy yondoshsa, uning tarjimasini to'g'ri bo'ladi.

Shuninhdek, maqola so'ngida xulosa qiladigan bo'lsam, tarjimaning turlari ko'p. Hayot davom etar ekan olimlar ham tarjima borasida o'z qarashlarini bayon etishdan to'xtashmaydi. Va bu kelajakda yana til sohasida yangi yangi ilmiy tadqiqotlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mazkur maqolada esa tarjimaning shu kungacha ma'lum va mashhur bo'lgan asosiy turlari haqida yoritib berildi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Tarjima Nazariyasi I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov 2012
2. Google hamda ijtimoiy tarmoqlar bazaviy ma'lumotilar.
3. Translation and Practice Theory. Maeve Olohan.
4. Tarjima Nazariyasi Asoslari. Тошкент тумани Келес ш. К. Рофуров кучаси МЧЖ "Нош ир" Qudrat Musayev.
5. Ғанишер Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: 2016, 23, бет
6. [https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/1.Gulnoza\\_SAYDALIYEVA\\_7-12.pdf](https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/1.Gulnoza_SAYDALIYEVA_7-12.pdf)
7. Sanjar Urol Ogli Samandarov, Mirkamol Ilkhom Ogli Artikov, & Oybek Rustamovich Achilov (2022). FOREGROUNDING AS A LITERARY



DEVICE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 538-541.

8. Adham Kamil Ugli Khakimnazarov, Anvarjon Arif Ugli Namozov, & Oybek Rustamovich Achilov (2022). COUPLING AS A STYLISTIC DEVICE IN UZBEK AND IN ENGLISH POEM. Academic research in educational sciences, 3 (10), 587-590.
9. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5).

